


# **O'zbekiston va Tojikiston Prezidentlari dolzarb mintaqaviy va ikki tomonlama masalalarni muhokama qildilar**



**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 30 aprel kuni Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon bilan telefon orqali muloqot qildi.**

Davlat rahbarlari Tojikiston-Qirg'iziston chegarasidagi vaziyatning rivojlanishini [muhokama qildi](#).

O'zbekiston Prezidenti yuzaga kelgan vaziyatni tez fursatda hal qilish va uning keskinlashuviga yo'l qo'ymaslik bo'yicha Tojikiston va Qirg'iziston tomonlari erishgan kelishuvlarni qo'llab-quvvatladи.

Mavjud barcha masalalar do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va sheriklik munosabatlari ruhida, faqat muzokaralar va maslahatlashuvlar yo'li bilan hal qilinish muhim ekani ta'kidlandi.

Tojikistonga bo'lajak oliy darajadagi tashrifga tayyorlarlikning borishi ham ko'rib chiqildi. Mamlakatlarimiz bosh vazirlari o'tgan hafta Xo'jand shahrida o'tkazgan amaliy uchrashuvning samarali natijalari mammuniyat bilan qayd etildi.

O'zbekiston va Tojikiston o'rtaida uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan keng ko'lamlı hamkorlikning yangi "o'sish nuqtalari"ni birgalikda aniqlash muhimligi alohida ta'kidlandi.